

VABO KASALLIGINING TARIXI

Absatorov Alinazar Umidjon o'g'li

*Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Namangan
filiali davolash ishi yo'nalishi 1 bosqich talabasi*

Annotatsiya

Vabo (cholera) – ingichka ichakning zararlanishi, intoksikatsiya, umumiy ahvolning og'irlashuvi va organizmning suvsizlanishi bilan davom etadigan o'tkir infeksiyon kasallik; o'ta xavfli ichak kasalliklaridan biri hisoblanadi.

Kalit so'zlar: Vabo, kasallik, vibrion, xavfli, yuqumli.

Аннотация

Холера — острое инфекционное заболевание, характеризующееся поражением тонкого кишечника, интоксикацией, ухудшением общего состояния и обезвоживанием организма; считается одним из самых опасных кишечных заболеваний.

Ключевые слова: Холера, болезнь, вибрион, опасный, заразный.

Abstract

Cholera is an acute infectious disease characterized by damage to the small intestine, intoxication, worsening of the general condition, and dehydration of the body; it is considered one of the most dangerous intestinal diseases.

Keywords: Cholera, disease, vibrio, dangerous, contagious.

Vabo dastlab (1816-yil) Hindistonda – Gang daryosi vodiysida paydo bo'lgan; u yerda turmush sharoiti og'ir bo'lganligi uchun aholining bir qismi boshqa davlatlarga keta boshlaydi. Natijada Vabo Yevropaga, keyinchalik butun dunyoga, chunonchi Birma (1819), Yava va Borneo orollari, Xitoy (1820), Eron (1821), Yaponiya hamda Rossiyaga (1822) tarqaladi. 1823-1925-yillarda Rossiyada Vabo epidemiyasi 55 marta qayd qilingan. Turkiston o'lkasiga, asosan, Afg'oniston va Erondan o'tgan vaboning klassik vabo va El-Tor Vabosi degan 2 turi bor. Shunga ko'ra, Vabo mikrobi (vibrion deb ataladi) klassik vabo vibrioni va ElTor vibrioni deb ataladigan ikki xilga ajratiladi. Klassik vabo vibrionini 1883-yil R-Kox, El-Tor vabo vibrionini esa 1906-yil Sinay Gotshlix yadrosida topgan.

Vabo vibrioni salgina bukilgan va ikki uchi yumaloqlangan tayoqcha bo'lib, bo'yi 1,5-4 mk va eni 0,2-0,4 mk vabo vibrioni daryo suvida 18 kundan 5 oygacha, muzda bir necha oy, ariqlarda bir necha kun, dengiz suvida ikki hafta, sovuq vaqtda najasda bir necha oy, axlat chuqurlarida 3 oygacha, ichki kiyimlarda 2 oy, qum tuproqda bir necha oy, suv havzalarida 15-30 kun, sut va yog'da bir oygacha, kartoshkada 2 haftagacha, ho'l mevada bir necha kungacha, pivoda 3 soatdan 5

kungacha tirik turadi. Dezinfeksiyalovchi moddalar vibrianni tez o'ldiradi. Suv qaynatilganda ham vibriion tez o'ladi. 1960-yil gacha bo'lib o'tgan vabo epidemiyalarining deyarli hammasiga klassik vabo vibrioni sabab bo'lgan.

Klassik vabo og'ir utib, bemor yotib qoladi, kasallik belgilari (tez-tez ich ketishi, qusish, shuning natijasida organizmning suvsizlanishi, shuningdek temperatura pasayishi, muskullarning tirishishi va intoksikatsiyaning boshqa belgilari, yurak urishining susayishi) aksari ro'yirost ko'rinadi, shunga ko'ra kasallik vabo boshlanishi bilanoq tez aniqlanganida, vaboning tarqalishi cheklanadi. El-Tor vabosi esa aksari yengil o'tadi.

Vabo vibrioni xolerogen deb ataladigan enterotoksin ishlab chiqaradi, bu toksin oqsildan iborat bolib, unda immunnologik jihatdan bir-biridan farq qiladigan ikkita fragment bor.

Vabo qo'zg'atuvchisining kopayish joyi odamning ichagi, kasallik manbaiyi esa bemor odam yoki vibriion tashib yuruvchi kishidir.

Vabo bilan og'rigan kasalda seroz bo'shliqlaridagi suyuqlik, qon, quyuqlashib qoladi Angidremiya, pereferik qondagi eritrotsitlar sonining ko'payib qolishi polisitemiya bo'lishi ham darak beradi.

Kasallik jarayoni avj olib borgani sayin ichakdagi patologoanotamik o'zgarishlar zo'rayib boradi.

Ichak juda dam bo'lib, devori shishadi va qonga to'lib turadi, ko'pincha qon talashlar ham paydo bo'ladi.

Vaboning tipik (algid) formasi 2-3, ba'zan 5 kunlik inkubatsion davrdan keyin o'ziga xos belgilar bilan boshlanadi: ich tez-tez va ko'p keladi, bemor qusadi, temperaturasi pasayadi (35-34° gacha), muskullari tirishadi, yurak urishi susayadi. Organizm suvsizlangani uchun bemorning ko'zlari kirtayadi, badani ko'karadi, terisi burishib qoladi, yopishqoq ter bosadi. Bemor shu ahvolda bir necha kun yotgach ich ketishi va qusish bosilib, sog'aya boshlaydi. Vaboning ich surmaydigan va qustirmaydigan og'ir („quruq“) formasida bemor talvasaga tushib, o'ziga kelmay, bir necha soatda o'lib qoladi. Zamburug', mishyakdan zaharlanish, shuningdek ovqatdan bo'ladigan toksikoinfeksiyalar ham ba'zan vaboga o'xshab kechishini nazarda tutish lozim. Bemor, albatta, kasalxonada davolanadi.[1. Internet resursi.]

Taxminlarga ko'ra, vabo O'zbekistonga Afg'onistonning kasalliklar qayd etilgan chegara viloyatlaridan kelgan. O'zbekiston SSRning Afg'oniston bilan chegaradosh yagona viloyati Surxondaryo viloyati butun respublika bo'ylab infeksiya tarqalish manbai deb qaraladi, biroq viloyatda vabo kasalligi rasman qayd etilmagan. Hukumat komissiyasining xulosasiga ko'ra, vabo kasalligi 1965-yil iyun oyida Surxondaryo viloyati Sho'rcha tumani paxta dalalarida ishlov berish bilan shug'ullanayotgan Nukus aviatsiya otryadining uchuvchilari tomonidan Qoraqalpog'istonga olib kelingan. O'sha hududda aprel-may oylarida 218 kishi vaboga

tekshirilmay o'tkir diareya bilan kasalxonaga yotqizilgan. 17-iyuldan 23-iyulgacha otryadning 8 nafar a'zosi oshqozon-ichakda og'riqni boshdan kechirgan. Epidemiyaning mumkin bo'lgan boshqa manbalari qatorida tadqiqotchilar quyidagilarni ta'kidladilar: Amudaryo bo'ylab Afg'onistonga suzib borayotgan eshkakchilar; giyohvand moddalar kontrabandachilari; Hindistonda gastrollarda bo'lgan "Bahor" ansambli; Turkmanistondagi Kushka shahridan chegarani noqonuniy kesib o'tgan odamlar.[2. Internet resursi.]

Toshkent qo'zg'oloni, Vabo isyoni (1892.24.6) — podsho hukumatining mustamlakachilik siyosati va milliy zulmiga qarshi ko'tarilgan qo'zg'olon. 1892-yil may oyida Jizzaxda vabo kasali tarqalgan. Iyun oyida Toshkentda ham vabo tarqalgani ma'lum bo'lgan. Yangi shaharda 417, Eski shaharda 1462 bemor aniqlangan. Podsho hukumati ma'murlari uning fojeali oqibatlarining oldini olish uchun shoshilinch choralar ko'ra boshladi: 7 iyunda shahar ma'muriyati 12 eski qabristonni yopib, yangi 4 qabriston ochilishini, shahardan chiqish cheklanganini e'lon qilgan. Lekin mustamlaka ma'muriyati bu to'g'rida aholi o'rtasida tushuntirish ishlari olib bormagan, musulmonchilik odatlari, marosim qonunqoidalarini hisobga olmagan. Va'da qilingan 4 ta yangi qabriston o'rniga faqat bittasi ochilgan. Vabodan o'lganlarni vrachning ruxsatisiz ko'rmaslik buyurildi hamda ularni shahar ichidagi mozorlarga dafn etish taqiqlandi. Kasal bo'lib vafot etganlar qaysi kiyimda bo'lsa, o'sha kiyimi bilan chuqur qazilgan qabrga qo'yilib, ustidan ohak sepib belgilab qo'yildi. Buning ustiga o'lganlarga janoza o'qish, yaqin qarindoshlarning mozorga borishi ham takiklandi. Marhumlarni urfodatga ko'ra, ko'mish g'oyat mushkul yumushga aylandi. Odamlar o'likni eski qabristonlarga olib borib ko'mishga majbur bo'ldilar. Politsiya bundaylarni topib hibsga ola boshlagan. Bu sabr kosasi to'lib turgan xalqni qo'zg'olon ko'tarishiga turtki bo'ldi. Xaloyiq (mingga yaqin kishi) eshonlardan Azizyor, Abulqosimxo'ja, bozor oqsoqoli Ziyomhammad va boshqa tanikdi kishilar boshchiligidagi 24 iyunda tayoq, ketmon, tosh va hokazo bilan qurollanib shahar boshlig'i mahkamasiga bostirib bordi. Bu yerda Toshkent hokimi S. R. Putinsev va oqsoqol Muhammad Yoqubga qarshi hujum qildilar. Oqsoqol xalqqa dag'dag'a qila boshlagach, uning boshiga toshlar yog'ilgan. Mashhur "Toshotar voqeasi" boshlangan. Oqsoqol hokimning idorasiga yashiringan. Xalq Putinsevdan oqsoqolni tutib berishni talab qilgan. Putinsev to'pponchasini chiqarib dag'dag'a qilishga o'tgan. Sabr kosasi to'lgan xalq Putinsev va uning mirshablarini do'pposlagan, mahkamani ostinustun qilgan. Shu onda Sirdaryo viloyati harbiy gubernatori Grodekov boshchiligidagi askarlar kelishi tufayli qo'zg'olonchilar chekinishga majbur bo'ldilar.[3. Internet resursi.]

Rus askarlar qo'zg'olonchilarning orqasidan quva boshlagach, noiloj qolgan olomon Anhor suviga o'zini tashladi. Ertasiga Anhordan 80 kish Vibriion (Vibrio) - Vibrionaceae oilasiga mansub urug'; spora hosil qilmaydigan vergulsimon

bakteriyalar. Uzunligi 0,5—1,5, yugʻonligi 0,3—0,6 mkm. Xivchinlari bir yoki bir nechta hujayraning bir qutbida joylashadi. V. uchun polimorfizm xos. Suvda, tuprokda, odam va hayvonlar ichagida yashaydi. V. patogen va saprofit buladi. 100 dan ortiq turi maʼlum. Masalan, *Vibrio cholera! asiaticae* odamlarda vabo kasalligini qoʻzgʻatadi. Bu V.ni birinchi marta nemis olimi R. Kox 1883 yilda Misrdagi vabo epidemiyasi vaqtida bemorlarning axlati va nobud boʻlganlarning ichagini tekshirishda aniqpagan. Mikrobiolog N. F. Gamaleya kasallikdan ulgan tovuq va kaptarlarda odamda kasallik qoʻzgʻatish xususiyati boʻlmagan V.ni aniqlagan. Bundan tashqari, sellyulozani yemiruvchi, faqat hayvonlar yoki qushlarni, hasharot va baliqlarni kasallantiruvchi V. ham uchraydi.ining oʻligi topildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. https://uz.wikipedia.org/wiki/Qoraqalpog%CA%BBistonda_vabo_epidemiyasi
2. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Vabo>
3. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Toshkent_qo%CA%BBzg%CA%BBoloni_\(1892\)](https://uz.wikipedia.org/wiki/Toshkent_qo%CA%BBzg%CA%BBoloni_(1892))